

30-dars

Darsning mavzusi: Ot -soʻz turkumi. (129-132-mashqlar)

Darsning taʼlimiy maqsadi: oʻquvchilarning ot soʻz turkumi, birlik va koʻplikdagi otlar, otning maʼnosiga koʻra turlari va uning soʻroqlar haqidagi bilimlarini boyitish, mustahkamlab borish; gapdagi soʻzlarni oʻzaro bir-biri bilan qoʻshimchalar yordamida bogʻlay olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: oʻquvchilarda hayvonlarga gʻamxoʻr boʻlish hislatlarini tarbiyalash; oʻquvchilarni bajarilayotgan mashqning maqsadini tushunishga oʻrganish; oʻzining xato va kamchiliklarini toʻgʻri tushunib, oʻzini nazorat qila olish, oʻrtoqlariga yordam berish; aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza olish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: mashq matnlari orqali oʻquvchilarning bogʻlanishli va yozma nutqini oʻstirish; mavzuga oid soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllay olish, oʻzlashtirilgan leksik birliklarni matnda qoʻllay olish.

Darsning turi: bilimlarni shakllantiruvchi; oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini rivojlantiruvchi;

Darsning metodi: suhbat, analiz, koʻrgazmalilik, mustaqil ish metodi.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, oʻquvchilarni darsga hozirlash.

II. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Oz gapir- soz gapir

Oʻtilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish. Uyga berilgan mashq oʻqitiladi. Uy vazifasi tekshirilayotganda doim oʻquvchilarga "Qaysi soʻzda yoki shu soʻzning qayerida imlo xato qilib qoʻyish mumkin?" degan savol berish hamda oʻsha soʻzning imlosi ustida ishlash lozim. Soʻz va gap haqidagi bilimlarini soʻrab mustahkamlash.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

129-mashq. Matn ifodali oʻqiladi. Mashq shartiga koʻra bajariladi.

Birlikdagi otlar: doctor, inson, Voyjonim, olmaxon, tipratikan, ot, sigir, dori.

Ko'plikdagi otlar: hayvonlaar, quyonlar, sichqonlar, cho'ponlar, baliqchilar, o'tin kesuvchilar, dehqonlar, bemorlar.



Birlikdagi va ko'plikdagi otlarning farqi tahlil qilinadi.

130-mashq. Shartiga ko'ra bajariladi.

Shaxs nomlari	Narsa nomlari	Joy nomlari
Ona	Sandiq	Bog'
Bobo	Kitob	Maktab
O'quvchi	Qalam	Qir-adir
Shifokor	Ko'ylak	Uy

Topshiriq.

Nuqtalarni birlashtir!"



131-mashq. She'r ifodali o'qiladi va she'rdagi ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'chiriladi.

Bolari haqida ma'lumot so'raladi.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

132-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.